



2021- yilning yanvar–sentabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021– yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi - 28256,2 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 27463,8 mlrd. so‘m (102,4 % ni), o‘rmon xo‘jaligi – 702,5 mlrd. so‘m (102,2 % ni), baliq xo‘jaligi – 89,9 mlrd. so‘m (162,8 % ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,7 % ni tashkil etdi.

**28256,2****Samarqand viloyati bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi(%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021–yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,2 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,4 % o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 % baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Toyloq (3415 mlrd. so‘m) va Urgut (2542 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Samarqand shahri (203 mlrd. so‘m) va Kattaqo‘rg‘on shahrini (131 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur‘atlari Oqdaryo (104,5%), Paxtachi (104,2 %), Narpay (104,2 %), hamda Pastdarg‘om (103,2%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish (o'zgarish) sur'ati, %




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021–yilning yanvar–sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 27163,2 mlrd. so'mni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 14376,2 mlrd. so'm (101,0 %) ni, chorvachilik mahsulotlari 12787,0 mlrd. so'm (103,7 %) ni tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (%)

**52,9 %
Dehqonchilik
mahsulotlari**



**47,1 %
Chorvachilik
mahsulotlari**

**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 65,0 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 32,3 % – fermer xo‘jaliklariga, 2,7 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, %da



2021–yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bulung‘ur tumanida (46,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (99,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shaharida (16,7 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (0,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Kattaqo‘rg‘on tumanida (51,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,0 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021–yilning yanvar–sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 14376,2 mlrd. soʻmni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 52,1 % ni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming tn.



Oʻsish surʼati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 572,5 ming tonna don (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan -18,1% ga kam) yetishtirildi. Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 87,4 % fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**



Sabzavotlar



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 924,3 ming tonna sabzavotlar (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 56,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming. tn.




O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 514,3 ming tonna kartoshka (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 93,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **kartoshka** yetishtirish
hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 83,4 ming tonna poliz ekinlari (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 80,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish
hajmi, tonna**




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 288,6 ming t. meva (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 52,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha meva va rezavorlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 498,4 ming tonna uzum (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 58,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **uzum** yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12 787,0 mlrd. soʻmni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi. Etishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 209,1 ming tonna goʻsht (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,8 % ga koʻp), 1008,9 ming t. sut (2,7 % ga koʻp), 1014,3 mln. dona tuxum (6,4 % ga koʻp), va 6024,8 t. baliq (60,4 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 209,1 ming tonna go'sht (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,8 % ga ko'p) etishtirildi. Go'sht etishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht etishtirish umumiy hajmidan 88,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1008,9 ming tonna sut (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,7 % ga ko'p) etishtirildi. Sut etishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut etishtirish umumiy hajmidan 90,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
etishtirilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1014,3 mln. dona tuxum (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 6,4% ga ko'p) etishtirildi. Tuxum etishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum etishtirish umumiy hajmidan 56,0% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Samarqand viloyati bo'yicha
olingan **tuxum**
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati




**Ovlangan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 6024,8 tonna (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 60,4 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 56,3 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o‘shish sur‘ati,




2021– yining 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 94,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 6,9 % fermer xo‘jaliklariga, 88,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,7 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 11,8 % fermer xo‘jaliklariga, 86,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 25,3 % fermer xo‘jaliklariga, 47,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 27,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1652,7 ming taga yetdi.

2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 66,6 ming taga (4,2 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati
bo'yicha **yirik shoxli qoramollarning**
umumiy
bosh soni, ming bosh




2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 2252,7 ming taga yetdi.


2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 24,0 ming taga (3,5 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 95,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Samarqand viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2522,7 ming taga yetdi.

2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 34,7 ming taga (1,3 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 88,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 27108 taga yetdi.


2020 – yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 536 taga (2,0 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 86,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Samarqand viloyati
bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 11906,0 ming taga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 528,7 ming taga (4,6 %) ko‘p.

Parrandalar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 46,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 66-230-45-30
• 66-235-22-01